



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2017 yil yanvar-avgust

RAQAMLAR:


- 2017 yil yanvar-avgust oylarida bozor xizmatlari hajmi 1852,7 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 126,1 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1039,7 ming.so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.


2017 yil yanvar-avgust oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1852,7 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,4 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (29,3 %) tashkil etadi.

2017 yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)




Ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Savdo xizmatlari– 543,7 mlrd.so'm, transport xizmatlari - 418,9 mlrd.so'm, , moliyaviy xizmatlar - 240,7 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 163,5 mlrd.so'm, boshqa xizmatlar - 54,2 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshganligi qayd etildi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2017 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2017 yil yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (126,1%), ta'lim sohasidagi xizmatlar (118,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,3%), yashash va ovqatlanish xizmatlari (112,0%) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2017 yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar- jami	1852,7	104,4
shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	163,5	112,3
moliyaviy xizmatlar	240,7	126,1
transport xizmatlari	418,9	100,6
shu jumladan: avtotransport xizmati	396,1	100,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	46,9	112,0
savdo xizmatlari	543,7	96,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	76,9	100,6
tna'lim sohasidagi xizmatlar	56,0	118,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	32,5	107,4
ijara xizmatlari	49,0	100,7
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yi- cha xizmatlar	78,8	100,9
shaxsiy xizmatlar	73,2	100,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	18,5	107,9
boshqa xizmatlar	54,2	105,9